

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

TARIXIY-BADIIY MATNLAR TARKIBIDA QUR'ON OYATLARINING PRETSEDENTLIK TABIATI

Qodirjonova Zohida Akromjon qizi

Andijon davlat universiteti, doktorant.

e-mail: qodirjonovazohida9@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-3253-9852>

Annotatsiya.

Tarixiy-badiiy matnlarga muallif tomonidan kiritilgan Qur'on oyatlari pretsedent birlik sifatida asar qahramonlarining diniy dunyoqarashi, davr ruhi, madaniyati va e'tiqodini ochib berish uchun xizmat qiladi. Ushbu maqolada "Ulug' saltanat" asarida keltirilgan Qur'on parchalarining lingvomadaniy jihatlarini tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Tarixiy-badiiy matn, Qur'on oyatlari, pretsedent birliklar, lingvomadaniy tahlil, "Ulug' saltanat" asari.

ПРЕЦЕДЕНТНЫЙ ХАРАКТЕР КОРАНИЧЕСКИХ АЯТОВ В ИСТОРИКО-ЛИТЕРАТУРНЫХ ТЕКСТАХ

Кодиржонова Зохида Акромжон кизи

Андижанский государственный университет, докторант.

Аннотация.

Включенные автором в историко-литературные тексты коранические аяты выступают в качестве прецедентных единиц, раскрывающих религиозное мировоззрение персонажей, а также дух эпохи, культуру и верования того времени. В статье анализируются лингвокультурологические аспекты цитируемых в произведении «Улуг Салтанат» фрагментов Корана.

Ключевые слова: историко-литературный текст, коранические аяты, прецедентные единицы, лингвокультурологический анализ, «Улуг Салтанат».

THE PRECEDENT NATURE OF QURANIC VERSES WITHIN HISTORICAL-LITERARY TEXTS

Qodirjonova Zohida Akromjon qizi

Andijan State University, Doctoral Student.

Abstract.

Quranic verses incorporated by the author into historical-literary texts serve as precedent units that reveal the religious worldview of the characters, as well as the spirit of the era, culture, and beliefs of the time. This article analyzes the linguocultural aspects of the Quranic passages cited in the work "Ulug' Saltanat".

Keywords: Historical-literary text, Quranic verses, precedent units, linguocultural analysis, "Ulug' Saltanat".

Kirish. Tarixiy-badiiy matnlar xalqning ijtimoiy tajribasi, ma'naviy qadriyatlarini, diniy tasavvurlari va tarixiy xotirasini badiiy shaklda aks ettiruvchi murakkab lingvomadaniy hodisa hisoblanadi. Bunday matnlarda muallif tomonidan qo'llanilgan tarixiy nomlar, diniy timsollar, mashhur voqealar, hikmatli iboralar hamda muqaddas manbalarga ishoralar asarning mazmunini va uslubiy tuzilishida muhim o'rin egallaydi. Xususan, Qur'on oyatlari yoki ularning mazmuniga asoslangan ifodalar tarixiy-badiiy asarlarda qahramonlarning dunyoqarashini yoritish, muayyan davrning ma'naviy muhitini tasvirlash va badiiy fikrning ta'sirchanligini oshirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Qur'on oyatlarining tarixiy-badiiy matn tarkibida qo'llanishi faqat diniy mazmunni ifodalash bilan cheklanmaydi. Ular muallif va kitobxon o'rtasida mavjud bo'lgan umumiy madaniy bilimlar tizimiga tayanadi hamda matnning yashirin mazmunini anglashga yordam beradi. Shu jihatdan Qur'on oyatlari, ularga oid parchalar, iqtiboslar, ishoralar va mazmunini o'xshatishlar pretsedent birlik sifatida baholanishi mumkin. Pretsedent birliklar muayyan jamiyat vakillariga avvaldan tanish bo'lgan, ularning madaniy xotirasida barqaror saqlanadigan va yangi matn tarkibida qayta faollashadigan til hamda madaniyat hodisalaridir.

Tarixiy-badiiy matnlarda Qur'on oyatlarining keltirilishi turli shakllarda amalga oshadi. Ayrim holatlarda oyat to'liq yoki qisman iqtibos sifatida berilsa, boshqa o'rinlarda uning mazmuni muallif nutqi, personaj nutqi, badiiy tasvir, ramz, ishora yoki parafrasa orqali ifodalanadi. Ushbu shakllarning har biri matnning semantik tuzilishiga, badiiy g'oyasiga va pragmatik yo'nalishiga muayyan ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, Qur'oniy birliklarning matndagi vazifasi asar yaratilgan davr, tasvirlanayotgan tarixiy muhit, muallifning uslubi va qahramonlar nutqining xususiyatlari bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Pretsedent birliklarga bag'ishlangan tadqiqotlarda qayd etilishicha, pretsedent termini tilshunoslikda birinchi marta Yu.N. Karaulov tomonidan rus tilida e'lon qilingan pretsedent birliklar haqidagi maqolasida qo'llangan [2]. Rus tilshunoslari tomonidan pretsedent birliklar sifatida muayyan til egalariga yaxshi tanish bo'lgan va ularning lisoniy xotirasida saqlanadigan, nutqiy faoliyatda qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror so'z birikmalari, jumlar hamda matnlar qayd etiladi [3].

Pretsedent hodisalar milliy markerlangan hodisalar sirasiga kiradi: bunday hodisalar ortida turuvchi konseptlar lingvomadaniy hamjamiyatning barcha vakillariga ularni pretsedent sifatida anglash imkoniyatini bera oladi. Bunda ma'noning markaziy unsurlari barcha til egalari uchun umumiy xarakterga ega [1]. Ye.A. Naximova pretsedent hodisalarini xalqning milliy ongida saqlanuvchi tizim sifatida baholaydi. Pretsedent hodisalar haqidagi nazariya asoschilaridan biri D.B. Gudkov esa tilni o'zlashtirishning milliy-madaniy va qomusiy darajasi bilan bog'liq bo'lgan ayrim voqea, fakt, nom, matnlarni pretsedent hodisalar sifatida baholab, ularning lingvomadaniy hamjamiyatning aksar vakillariga tanish bo'lishini, ularning xotirasida saqlanib turishini ta'kidlaydi hamda bunday birliklarning nutqda aktuallashgan ko'rinishlarini pretsedent birliklar deb hisoblaydi.

Tadqiqotchi invariantlik, etalonlik, qayta tiklanish, qoliplashish va baholash xususiyatlari pretsedent hodisalarga xos xususiyatlar ekanini alohida ta'kidlab o'tadi. Rus tilshunosligida pretsedent birliklar tadqiq etilgan ishlarda Injil matnlari, miflar, xalq qo'shiqlari, ertaklar, latifalar, maqollar, turg'un o'xshatishlar, frazeologizmlar hamda mashhur shaxslar nomlari pretsedent birlik sifatida qayd etiladi. Shunga ko'ra bunday birliklarning pretsedent nomlar, pretsedent jumlar, pretsedent matnlar kabi turlari ajratiladi. V.A. Maslova esa muayyan millat vakillariga yaxshi tanish bo'lgan matnlar yoki voqealar bilan bog'liq bo'lgan shaxs nomlari pretsedent nomlar bo'la oladi, deb hisoblaydi. Masalan, Oblomov, Taras Bulba kabi [3]. Pyego-Gro N. pretsedent birliklarni to'rtga bo'ladi:

1. Sitata;
2. Referensiya;
3. Qo'shtirnoqsiz ko'chirma;
4. Allyuziya [4].

D. Xudoyberganova pretsedentlik intertekstuallikning namoyon bo'lish shakllaridan biri bo'lib, til egalarining asosiy qatlamiga yaxshi tanish ekanligi, nutqda qayta-qayta qo'llanishi bilan xarakterlanadi, deya tahlil qilgan [5].

Tarixiy-badiiy matn tarkibida qo'llanilishi mumkin bo'lgan pretsedent birliklar quyidagilar:

1. Qur'on oyatlari;
2. Hadislardan namunalar;
3. G'azal parchalari;
4. Iboralar;
5. Izofaviy birikmalar;
6. Maqol va matallar;
7. Metaforalar.

Tarixiy-badiiy matnlar tarkibida ularning alohida lingvomadaniy birlik sifatida o'rni borligini ko'rishimiz mumkin. "Ulug' saltanat" asarida ushbu birliklarning keng qo'llanilganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Qur'oni karimda shundoq bitilmishdur: "Man amila solihan falinafsihi va man asoa faalayho..." "Kimki yaxshilik qilsa – o'zi uchun qiladur, kimda-kim yomonlik qilsa – bu ham uning o'ziga qaytadur..." (Fussilat surasi, 46-oyat).

Asarda keltirilgan mazkur oyat islomiy madaniyat va o'zbek milliy mentalitetida ijtimoiy-madaniy kod darajasiga ko'tarilgan kuchli pretsedent fenomendir. U tinglovchi yoki kitobxondan chuqur sharh talab qilmaydi, chunki uning mazmuni jamiyat a'zolarining milliy xotirasi va ongida tayyor konsept sifatida yashaydi.

Matnda pretsedent birlik avval arab tilidagi asl holida, so'ngra uning eski o'zbek tiliga yaqin tarjimasi bilan berilgan. Bu usul matnning ta'sir kuchini oshirishga, unga ilohiylik va salmoqdorlik bag'ishlashga xizmat qilgan. Lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan bu yerda ikkita asosiy milliy konsept to'qnashadi:

Yaxshilik – solih amal. O'zbek xalqi dunyoqarashida yaxshilik faqatgina ijtimoiy burch emas, balki insonning o'z oxirati va ruhiyati uchun qilgan eng foydali "sarmoyasi" sifatida idrok etiladi. Oyatlardagi "falinafsihi" (o'z nafi, o'zi uchun) birikmasi insonning egoizm tabiatini ijobiy tomonga yo'naltiradi.

Yomonlik / qaytar dunyo. Kishi qilgan yomonlik baribir o'ziga qaytadi, degan tushuncha o'zbek mentalitetida juda chuqur ildiz otgan. Bu lingvokulturologiyada "Bu dunyo – qaytar dunyo" yoki "Pichoqni avval o'zingga ur, og'rimasa birovga" maqollari orqali namoyon bo'ladigan ijtimoiy adolat konseptidir.

Badiiy matnda Amir Temur tilidan aytilgan bu oyat shunchaki diniy bilimni ko'rsatish uchun emas, balki yuz berayotgan tarixiy-siyosiy voqea, insonlarning qilmishlariga axloqiy hukm chiqarish uchun ishlatilmoqda. Muallif o'z qahramonining nutqini yoki umumiy voqealar rivojidadagi falsafiy xulosani isbotlash uchun eng oliy pretsedent manbaga — Muqaddas Kitobga murojaat qiladi. Bu kitobxonda voqelikning haqqoniyligiga va adolat mezoniga bo'lgan ishonchni maksimal darajada oshiradi.

Asarning yana bir qismiga quyidagi parcha keltirilgan: Kutilmaganda shu payt "Baqara" surasidan bir oyat charx urib Amir Temur xayoliga keldi: "Eslang, (ey, Muhammad!) Parvardigoringiz farishtalarga: «Men Yerda xalifa (Odam) yaratmoqchiman», deganida, ular aytdilar: «U yerda buzg'unchilik qiladigan, qonlar to'kadigan kimsani yaratmoqchimisiz? Holbuki, biz hamdu sano aytish bilan Seni ulug'laymiz va Sening nomingni mudom pok tutamiz». (Alloh) aytdi: «Albatta, Men siz bilmagan narsalarni bilurman»". ("Baqara" surasi, 30-oyat).

Bu o'rinda keltirilgan oyat mazmuni — insonning yer yuzida xalifa qilib yaratilishi, farishtalarning bu boradagi xavotiri va Allohning cheksiz ilmi — islomiy ontologiyaning, ya'ni borliq haqidagi ta'limotning asosidir. O'zbek

lingvomadaniyatida bu matn insonning yaratilish mohiyati, uning mas'uliyati va taqdiri haqidagi eng oliy pretsedent konsept hisoblanadi.

Matn ostida o'zbek milliy-diniy dunyoqarashiga xos bo'lgan bir nechta muhim konseptlar yotadi:

"Inson va mas'uliyat" konsepti: O'zbek madaniyatida inson shunchaki biologik mavjudot emas, balki yer yuzini obod qilishi kerak bo'lgan oliy zot — Allohning xalifasi deb bilinadi.

"Buzg'unchilik" konsepti: Farishtalarning xavotiri orqali insonga xos bo'lgan salbiy xususiyatlar: urush, adovat, qon hissi tilga olingan. Bu badiiy matndagi keyingi xatboshida tasvirlangan dahshatli voqealar — 70 ming kallaning kesilishi, Isfaxon va Hamadondagi qirg'inlar bilan bevosita kontrast ziddiyat hosil qiladi.

Oyat Amir Temurning xayoliga tasodifan kelmaydi. U qirg'inbarot urushlar, to'kilgan qonlar va kesilgan boshlarni ko'rib, ruhiy iztirobga tushgan: Sohibqiron xayolidan ketmadi, uning qosh-qovog'i ochilmadi. Oyat bu o'rinda qahramonning o'z-o'zi bilan bo'layotgan ichki dialogi, vijdon azobi va falsafiy o'ylari uchun psixologik parallel vazifasini o'taydi.

"Xalloqi bezavolga sallamno!" frazemasi: Bu ibora pretsedent reaksiya (javob) hisoblanib, o'zbek tilida inson o'z aqli o'zligini tan olganda, taqdirga va Yaratganning ilmiga taslim bo'lganda aytiladigan barqaror birikmadir. Amir Temurning hayrati va taajjubi shu ibora orqali lisoniy shakllantirilgan.

Xulosa qilib aytganda, muallif Qur'on oyatlaridan foydalanish orqali hukmdor obrazining ichki ruhiy holatini, urushlar bilan bog'liq insoniy yo'qotishlarga munosabatini hamda Yaratgan qarshisidagi o'zlik va mas'uliyat tuyg'ularini yoritgan. Qur'oniy birliklar matnda qahramonning ma'naviy kechinmalarini ifodalovchi hamda uning xatti-harakatlarini axloqiy-diniy mezonlar asosida talqin qilishga xizmat qiluvchi lingvokulturologik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Natijada hukmdor obrazi faqat tarixiy-siyosiy faoliyat doirasida emas, balki ichki ziddiyatlar, vijdoniy mulohazalar va ma'naviy mas'uliyat bilan bog'liq jihatlari orqali ham ochib beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Банникова С. В. *Прецендентность как лингвокультурный феномен (на материале английских и русских текстов)*: дис. ... канд. филол. наук. – Тамбов, 2004.
2. Гунько Ю. А. *Особенности функционирования прецендентных высказываний в разговорной речи носителей русского языка*: дис. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2002.
3. Красных В. В., Гудков Д. Б., Захаренко И. В., Багаева Д. В. Прецендентные феномены в лингвистике // *Вестник Московского университета. Серия 9. Филология*.
4. Караулов Ю. Н. *Русский язык и языковая личность*. – Москва: Наука, 1987.
5. Маслова В. В. *Лингвокультурология: учебное пособие*. – Москва: Academia, 2001.
6. Маслова В. В. *Лингвокультурология*. – Москва: Academia, 2001. – С. 53.
7. Пьеро-Гро Н. *Введение в теорию интертекстуальности*. – Москва: ЛКИ, 2008.
8. Xudoyberganova D. *Matnning antropotsentrik tadqiqi: monografiya*. – Toshkent: Fan, 2013. – 89 b.